

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**RAVSHANOV SHOXRUX ALIQUL O'G'LI**

**EKOTURISTIK RESURSLAR TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARINI  
BARQAROR RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA  
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**11.00.01 – Tabiiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Ravshanov Shoxrux Aliqul o‘g‘li**

Ekoturistik resurslar tog‘ va tog‘oldi hududlarini barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida (Surxondaryo viloyati misolida) ..... 3

**Равшанов Шохрух Аликул угли**

Экотуристические ресурсы как важный фактор устойчивого развития горных и предгорных территорий (на примере Сурхандарьинской области) ..... 21

**Ravshanov Shokhrukh Alikul ugli**

Ecotourism resources as an important factor in the sustainable development of mountain and foothill areas (on the example of Surkhandarya region)..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**RAVSHANOV SHOXRUX ALIQUL O'G'LI**

**EKOTURISTIK RESURSLAR TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARINI  
BARQAROR RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA  
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**11.00.01 – Tabiiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Gr311 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xursanov Dunyobek Baxtiyorovich**  
geografiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich**  
geografiya fanlari doktori(DSc), dotsent

**To‘rayev Quvonchbek Tagirovich**  
geografiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 27-fevral soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel.: (+99866) 240-38-47, faks: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 240-38-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “15” fevral kuni tarqatildi.  
(2025-yil 28-yanvardagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.B.Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

**Q.S.Yarashev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati:** Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ning hisobotida turizmni barqaror rivojlantirishning qator dasturlari bayon etilgan bo‘lib, unda “Ekoturizmni rivojlantirish uchun iqlim o‘zgarishi, yerlardan barqaror foydalanish, bioxilma-xillikni va alohida muhofaza etiladigan hududlarni saqlash masalalariga alohida e’tibor berish”<sup>1</sup> lozimligi ta’kidlangan. Shu bois ekoturizmni rivojlantirishda geotizimlarning barqarorligini saqlash, bioxilma-xillikni va tabiat yodgorliklarini asrashni ilmiy asosda tashkil etish, ekoturizmni barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida ekoturizmni rivojlantirishda tabiat yodgorliklarini, alohida muhofaza qilinadigan hududlarni va geotizimlarni muhofaza qilish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekoturizmning davriyligini uzaytirish va hududiy tarkibini takomillashtirish, barqaror rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda turizmning turli tarmoqlari, jumladan ekoturizm, agroturizm, tarixiy, diniy va ekstremal turizm sohalarida xizmat turlarini rivojlantirish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”<sup>2</sup> doirasida mamlakatning turizm va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida bir qator muhim vazifalar belgilangan. Ushbu strategiya orqali turizm industriyasini tez rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi rolini oshirish, turistik xizmatlar sifatini yaxshilash va turizm infratuzilmasini kengaytirish maqsadlari ko‘zda tutilgan. Bularning barchasi odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlashga qaratilgan. Ayniqsa, tabiiy sharoitlari va geotizimlari xilma-xil bo‘lgan Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi landshaftlarining ekoturistik xususiyatlarini tadqiq etish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son “Turizm sohasini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-5611-son “Turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 6-noyabrdagi PF-6306-son “Turizm va madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 5-maydagi 332-son “Surxondaryo viloyatining turizm

<sup>1</sup> <https://www.e-unwto.org>. UNWTO Annual report. 2017

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni

salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi:** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof- muhit muhofazasi", VIII. "Yer haqidagi fanlar" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi** Ekoturizm bilan bog'liq keng ko'lamli tadqiqotlarning nazariy va uslubiy masalalari xorijlik va MDH olimlaridan Jumladan, N.D.Getzer (1965), J.Krippendorff (1977), H.Seballos-Laskurian (1980), G.Wall (1982), K.Ziffer (1989), J.R.Butler (1990), K.Lindberg (1993), D.Vestern (1993), J.G.Nelson (1994), P.Tomson (1995), K.Brandon (1996), N.V.Moraleva (2002), T.K.Sergeeva (2004) A.V.Drozdov (2008), M.Honey (2008), E.Y.Ledovskix (2012) va boshqa olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

O'zbekistonda turizmning turli masalalari bo'yicha A.S.Soliyev (2005), M.R.Usmonov (2005), N.Tuxliyev (2006), T.Abdullayeva (2006), N.E.Ibadullayev (2008), O.X.Xamidov (2016), Y.I.Ahmadaliyev (2019), S.B.Abbasov (2021), A.Abdulqosimov (2021), N.Q.Komilova (2021), Sh.A.Xolmurodov (2021), O'.B.Badalov (2021), Sh.G'.Shomurodovalar (2022) shug'ullanganlar. Ekoturizmning ilmiy-nazariy asoslari A.N.Nigmatov (2007), M.Xoshimov (2012), N.T.Shamuratova, Sh.T.Yoqubjonova (2017), B.X.Kamolov (2018), R.A.Islomova (2019), Q.S.Yarashev (2021), J.Y.Xasanov (2021), X.X.Jumayev (2022), O.Q.Tobirov (2022) va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Biroq, tog' va tog'oldi hududlari ekoturizmning o'ziga xos obyekti bo'lib, ularning turistik imkoniyatlari va barqaror rivojlanishi hali yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatidagi tog' va tog'oldi hududlarida ekoturizmni rivojlantirish, ularning imkoniyatlarini baholash, ekoturistik rayonlashtirish va transchegaraviy ekoturistik zonalarni tashkil etish masalalari ilmiy jihatdan ochib berilmagan.

**Dissertatsiya mavzusini dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi:** Samarqand davlat universitetining "Janubi-g'arbiy O'zbekistonning geotizimlarini tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy baholash, ularning geoekologik muammolarini o'rganish va kartalashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Surxondaryo viloyati tog' va tog'oldi hududlarini ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, baholash, rayonlashtirish hamda istiqbolda rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Surxondaryo viloyati tog' va tog'oldi hududlaridagi ekoturistik resurslarni aniqlash va rivojlantiruvchi manbalarni tahlil qilish;

viloyatning ekoturistik resurslarini baholash, va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlarini ekoturistik rayonlashtirish va transchegaraviy ekoturistik zonalarga ajratish;

viloyat ekoturistik resurslari va ekoturistik zonalarini kartalashtirish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlaridagi ekoturistik resurslarni aniqlash, tasniflash, baholash hamda ekoturistik rayonlashtirish bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqotida hududiy tahlil, kartografik, geografik taqqoslash, statistik, ekspeditsiya, anketa so‘rov, SWOT-tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlarining ekoturistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan hamda shu asosda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

viloyat tog‘ va tog‘oldi hududlarining barqaror rivojlanishida ekoturistik resurslarning salohiyati transchegaraviy ekoturistik zonalarda misolida (tabiiy ko‘rsatkichlar, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ekoturistik infratuzilma ko‘rsatkichlari asosida) baholangan;

viloyat tog‘ va tog‘oldi hududlari qo‘shni davlatlar bilan chegaradoshligi va ekoturistik salohiyatidan hamkorlikda foydalanish maqsadida transchegaraviy ekoturistik (Boysun-Hisor, Ko‘xitang, Bobotog‘) zonalarga ajratilgan;

GAT texnologiyasi va anketa so‘rov, ekspeditsiya tadqiqot metodlari asosida “Transchegaraviy ekoturistik zonalarda”, “Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlar ekoturistik salohiyatini baholash” kartalari yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

viloyatning tog‘ va tog‘oldi hududlarini ekoturistik imkoniyatlari tahlil qilinib, ulardan foydalanish bo‘yicha yangi marshrutlar ochish imkoniyati baholangan;

viloyat tog‘ va tog‘oldi hududlarining ekoturistik salohiyati tabiiy ko‘rsatkichlar, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ekoturistik infratuzilma ko‘rsatkichlari bo‘yicha kompleks baholangan va istiqbolda rivojlanish yo‘llari belgilangan;

Surxondaryo viloyatining qo‘shni davlatlarga chegaradosh tog‘li hududlari ekoturistik-rekreatsiya resurslaridan birgalikda foydalanish, tashqi va ichki turizmni rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

ArcGIS dasturi asosida turli masshtab hamda mazmundagi ekoturistik kartalari ishlab chiqish metodikasi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasi, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi va Surxondaryo viloyati turizm boshqarmasi ma’lumotlari asosida bajarilganligi, tadqiqot doirasida foydalanilgan nazariy yondoshuvlar ilmiy asoslangan manbalardan olinganligi, shuningdek,

ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tog‘ va tog‘oldi mintaqalari ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, ularning ekoturistik salohiyatini baholash va rayonlashtirish mezonlarini ishlab chiqish metodikasini yangi usullar yordamida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida ekoturistik resurslarni aniqlash, transchegaraviy hududlardan ekoturistik maqsadlarda qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda foydalanish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi mintaqalari ekoturistik resurslari va ulardan foydalanish, baholash hamda barqaror rivojlanishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlarining ekoturistik resurslaridan foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan agentlik faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining 2024-yil 19-sentabrdagi 03-12-17-6158-son ma’lumotnomasi). Natijada, viloyatning ekoturistik resurslaridan rejali va oqilona foydalanish imkonini bergan;

viloyat tog‘ va tog‘oldi hududlarining barqaror rivojlanishida ekoturistik resurslarning salohiyati transchegaraviy ekoturistik zonalar misolida (Tabiiy ko‘rsatkichlar, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ekoturistik infratuzilma ko‘rsatkichlari asosida) baholash ishlaridan agentlik faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining 2024-yil 19-sentabrdagi 03-12-17-6158 son ma’lumotnomasi). Natijada, viloyatning tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida ekoturistik-rekreatsion salohiyatni baholash va hududlarning umumiy ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash imkonini bergan;

viloyat tog‘ va tog‘oldi hududlarini qo‘shni davlatlar bilan chegaradoshligi va ekoturistik salohiyatidan hamkorlikda foydalanish maqsadida Boysun-Hisor, Ko‘hitang, Bobotog‘ transchegaraviy ekoturistik zonalarini tashkil etish bo‘yicha takliflaridan agentlik faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining 2024-yil 19-sentabrdagi 03-12-17-6158 son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu hududlar ekoturistik resurslaridan qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda foydalanish va turistlarni (tashqi turizm) yanada ko‘proq jalb qilish imkonini bergan;

viloyatda ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha yaratilgan “Transchegaraviy ekoturistik zonalar”, “ Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlar ekoturistik salohiyatini baholash” kartalaridan agentlik faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining 2024-yil 19-sentabrdagi 03-12-17-6158 son ma’lumotnomasi). Natijada, viloyatda yangi ekoturistik resurslarni aniqlash va ularni barqaror rivojlantirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 7 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ekoturistik resurlarni o'rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Ekoturistik resurlarni tadqiq etishning ilmiy asoslari, ekoturizm turlari va resurslar tasnifi, hamda rivojlanish tarixi batafsil bayon etilgan.

Jahonda fan-texnika inqilobi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish turizmning jadal suratlarda rivojlanishiga olib keldi. Shu sababli turistlar ko'p tashrif buyuradigan joylarda ekologik madaniyat va ijtimoiy rivojlanish sohasida jiddiy muammolar yuzaga keldi. Tez daromad olish istagi bilan bog'liq bo'lgan turizmning rejasiz o'sishi atrof-muhitga ko'pincha salbiy ta'sir ko'rsatib, mahalliy aholining turmush tarzini keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa aholini tabiiy, tarixiy va madaniy qadriyatlarini asrab-avaylash haqida qayg'urishga majbur qiladi. Qayd etish joizki, bu boradagi ilk qadamlar 1992-yil 14-iyunda BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida 182 davlat hukumatlari tomonidan “Kun tartibi XXI” dasturida qabul qilingan edi. Unda turizmning barqaror rivojlanishi deganda hududning turistik va boshqa resurslariga, shuningdek, mahalliy aholiga zarar yetkazmasdan turizm va rekreatsion faoliyat turlarini rivojlantirish jarayoni tushuniladi. Barqaror rivojlanish tamoyillari barqaror turizmning ayrim turlari, jumladan ekoturizmning asosini tashkil qiladi.

Yillar davomida xorijiy geograflar, iqtisodchilar, ekologlar, biologlar, pedagog va psixologlar ular orasida: AQSHda M.Honey (2008), S.Peyj va R.K.Douling (2008), C.Jurowski (2010), I.Dhami va J.Deng (2012, 2013); Kanadada G.T.Xvenegaard (2002); Buyuk Britaniyada M.B.Orams (2000), S. Wearing va J.Neil (2013), D.A.Fennell (2014); Avstraliyada N. Beaumont (2010); Filippinda R.Benedikto, A.Alampay va K.M.Libosada (2003); Hindistonda

A.Chandel va S.Mishra (2016); Rossiya Federatsiyasida E.Y.Ledovskix, N.V.Moraleva (2002, 2012), V.V.Xrabovchenko (2003), T.K.Sergeeva (2004), A.B.Kosolapova (2005), N.V.Tixomirov (2007), S.V.Feoktistova (2008), E.M.Korosteleva (2008), A.V.Drozdov (2008), E.Y.Kolbovskiy (2011), E.L.Pimenova (2012), A.V.Truxacheva (2014); Belorusiyada I.V.Abramova (2011); Ukrainada V.I.Vishnevskiy (2015); Qozog‘istonda J.N.Alieva (2001), R.V.Plohix va V.S.Krilova (2015) va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarida ekoturizm tushunchasi va ekoturizmning ayrim masalalarini muhokama qilishgan.

Turli xil ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish jarayonida biz ekoturizm o‘zining turistik destinatsiyasini shakllantirishga yordam beradigan obyektlarning keng doirasi bilan ajralib turishini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik, bunda ekoturizm obyekti har qanday jonli va jonsiz tabiat obyekti bo‘lishi mumkin. Qo‘riqxonalar, yovvoyi tabiat, ko‘l, g‘or, tog‘ cho‘qqisi, ekzotik o‘simliklar o‘sadigan yoki ekzotik hayvonlar va qushlar yashaydigan joylar turizmning diqqatga sazovor obyektlari hisoblanadi. Shuningdek, hududning tarixiy va madaniy obyektlari, xalqning nomoddiy merosi, masalan, folklor, xalq hunarmandchiligi, bayramlar va diniy marosimlar ko‘pincha qishloq hududlarida tabiiy bo‘lmagan resurslar sifatida ekoturizmga muhim o‘rin tutadi. Ekoturizm resurslari tarkibiga landshaftlar, orografik, gidrologik obyektlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, madaniy – etnografik diqqatga sazovor joylar, noyob tabiiy obyektlar, arxeologik topilmalar, shuningdek, tipik va noyob landshaftlar hamda ekotizimlar kiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda biz ekoturizm resurslarini quyidagi turlarga ajratishni taklif qilamiz (1-jadval).

## 1-jadval

### Ekoturistik resurslar turlari

Jonli tabiat obyektlari	Jonsiz tabiat obyektlari	Antropogen kelib chiqishiga ko‘ra obyektlar	Ekotizimlar
<b>Botanik</b> – O‘simliklar (yovvoyi va madaniy o‘simliklar)	<b>Geologik</b> – Toshlar, minerallar va geologik tuzilmalarning turli shakllari	<b>Etnografik</b> – Milliy urf-odatlar, an‘analar va turmush tarzi	<b>O‘rmonlar</b> – Daraxtlar va ularning o‘ziga xos hayvonot dunyosi
<b>Zoologik</b> – Yovvoyi hayvonlar va ularning yashash joylari	<b>Speleologik</b> – G‘orlar va yer osti tuzilmalari	<b>Folklor</b> – Xalq ijodi, an‘anaviy qo‘shiq, raqs va marosimlar	<b>Cho‘llar</b> – Cho‘l ekotizimlari va ularning hayotiy sharoitlari
<b>Entomologik</b> – Hasharotlar (ko‘rkam va noyob turlar)	<b>Meteorologik</b> – Atmosfera hodisalari	<b>Arxeologik</b> – Qadimiy yodgorliklar, arxeologik topilmalar	<b>Botqoqliklar</b> – Botqoqli hududlar va ularning biologik xilma-xilligi
<b>Ornitologik</b> – Qushlar va ularning kuzatuv joylari	<b>Geomorfologik</b> – Tog‘lar, qoyalar, vodiylar va boshqa yer shakllari	<b>Tarixiy va madaniy</b> – Madaniy me‘moriy inshootlar va tarixiy obidalar	<b>Okean va dengizlar</b> – Dengiz va okean ekotizimlari
<b>Ixtiologik</b> – Suvda yashovchi umurtqalilar, ayniqsa baliq va boshqa jonzorlar	<b>Gidrologik</b> – Ko‘llar, daryolar, soylar va boshqa suv manbalari		


\*Jadval muallif tomonidan tuzilgan

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlarining ekoturistik resurslarini baholash va ularni barqaror rivojlanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tog‘ va tog‘oldi hududlarining barqaror rivojlanishida ekoturizmning o‘rni, hududlarning ekoturistik resurslari va ulardan foydalanish tahlil qilingan hamda ekoturistik salohiyatini baholash ishlari amalga oshirilgan.

Ekoturistik va rekreatsion resurslar hududlarning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu, asosan, tog‘ va tog‘oldi tabiat komplekslarining jozibadorligi, xilma-xilligi va ular o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, ekoturistik resurslar turlarining ko‘pligi va ulardan turistik maqsadlarda foydalanish sharoitlarining sezilarli darajada yaxshilanishi bilan bog‘liq. Tog‘ va tog‘oldi hududlarini ekoturizm - rekreatsiya jihatidan samarali rivojlantirish uchun chuqur ilmiy - amaliy tadqiqotlar zarur. Bunday tadqiqotlar rivojlanishning ko‘lami va xususiyatlarini, ekoturizm obyektlarining landshaft kompleksi bilan uyg‘unligini, tabiiy salbiy jarayonlarning xavfini hisobga olish va tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan asoslash kerak.

Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlari paragenetik landshaft sifatida juda qulay geografik joylashuvga ega. Bu joy tabiiy va iqlim sharoitlari, etnik-madaniy va balneologik resurslarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bu holat mamlakatda ekoturizmni raqobatbardosh tarzda rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasida turizm sektori eng istiqbolli tarmoqlardan biri sifatida ko‘rsatilmoqda. Viloyatning ekoturistik resurslar tarkibiga ko‘plab mineral buloqlar, sharsharalar, g‘orlar ham kiradi. Mineral buloqlar, masalan, Omonxona, Xo‘jamayxona va Xo‘jaipok bulog‘i shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur bo‘lib, ular sayyohlar uchun sog‘lomlashtiruvchi dam olish maskanlari sifatida xizmat qiladi. Ushbu hududlarda buloq suvlari minerallarga boyligi tufayli ichki organlar kasalliklarini davolashda foydali hisoblanadi. Tog‘lar va sharsharalar sayyohlarga nafaqat tabiat qo‘ynida hordiq chiqarish, balki sog‘lig‘ini yaxshilash imkonini ham yaratadi. Masalan, Sangardak sharsharasi tabiiy go‘zalligi bilan ajralib turadi va yil davomida turistlarni o‘ziga jalb qiladi. Viloyat hududida qadimiy tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan g‘orlar ham ko‘plab turistlarni jalb qiluvchi maskanlardir. Teshik-Tosh g‘ori, Qorong‘u yulduz, Boybuloq g‘orlari o‘zining sirli geologik tuzilishi hamda qadimiy topilmalari bilan ilmiy tadqiqotlar va speleoturizm rivoji uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Teshik-Tosh g‘oridan topilgan neandertal bolaga oid qoldiqlar va qator boshqa ashyolar bu hududda qadimiy odamlar yashaganini ko‘rsatadi.

Ekoturizm imkoniyatlarini yanada kengaytirishda davlat qo‘riqxonalari ham muhim o‘rin tutadi. “Surxon” davlat qo‘riqxonasi viloyatning ekologik barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi va uning hududida noyob o‘simliklar, jumladan, 807 turdagi o‘simlik va qator hayvonlar himoya ostiga olingan. Ushbu qo‘riqxonada Surxondaryo viloyatining ekologik madaniyatini oshirish va turistlarni jalb qilishda katta ahamiyatga ega. Qo‘riqxonada ichida belgilangan ekoyo‘laklar bo‘ylab rekreatsion yo‘nalishlar tashkil etilishi, turistlar uchun qiziqarli ekskursiyalarni tashkil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi (1-rasm).



**1-rasm. Surxondaryo viloyati ekoturistik resurslari kartasi.**

Ekoturizm maqsadlarida biror hududni baholashda tabiiy sharoitlarning qulay va noqulay jihatlari belgilovchi komponentlar, masalan, tog' jinslari, relyef, iqlim va suv resurslarini uyg'unlikda tahlil qilish, landshaftlarni baholashning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi.

“Ekoturizm salohiyati” har bir joyning turistik resurslari xarakteri va ularning uygʻunligi bilan belgilanishi mumkin. Uni quyidagi jihatlar orqali ifodalash mumkin:

1. Surxondaryo togʻ va togʻoldi hududlarida ekoturizmni tashkil etish uchun tabiiy, tarixiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning mavjudligi;

2. Aholi uchun noyob va qiziqarli boʻlgan togʻlar bilan chegaralangan tabiiy va texnogen obyektlar hamda hodisalarning, shuningdek, ekoturizm xizmatlarini shakllantirish, ekotur va ekskursiyalar tashkil etish, tabiatni muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar, vositalarning mavjudligi;

3. Resurslarning ekoturistning zavqlanishi, salomatligini tiklashi, dam olishi, aqliy motivatsiya, xulq-atvori va boshqa jihatlariga taʼsir koʻrsatishi;

4. Ekoturistik resurslarning jozibadorligi, betakrorligi, noyobligi va ularning oʻzaro uygʻunligi.

Ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari hududning ekoturizm salohiyati (HES) bilan belgilanadi. Hududning ekoturizm salohiyati, avvalo, tabiiy xususiyatlar va tabiiy resurslar bilan belgilanadi, chunki ekoturizm tabiatga yoʻnaltirilgan turizm turiga kiradi. Shuningdek, uning muvaffaqiyatli rivojlanishi hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan bevosita bogʻliqdir.

Shunday qilib, hududning ekoturistik salohiyatini baholash uchta koʻrsatkich tahliliga asoslanishi mumkin:

**Tabiiy koʻrsatkichlar:** tabiiy sharoitning qulayligi, landshaftlarning ekoturistik jozibadorligi, ekoturistik resurslar bilan taʼminlanganligi;

**Ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlar:** mahalliy aholining turizm sohasida bandligi, hududlarning investitsion ahamiyati, barqaror rivojlanishga koʻmaklashishi;

**Ekoturistik infratuzilma koʻrsatkichlari:** mehmonxona va boshqa turistik turar joylar zichligi, yoʻl va aloqa vositalarining tuzilishi, turistik kadrlar bilan taʼminlanganligi.


Viloyatning Boysun, Sariosiyo, Oltinsoy, Uzun va Sherobod tumanlari “Hisor”, “Bobotogʻ” va “Koʻhitang” togʻ tizmalarida joylashgani sababli, bu yerda ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud.

Surxondaryo viloyati miqyosida ekoturizm salohiyatini baholash boʻyicha bir qator ishlar olib borildi. Surxondaryo viloyatining togʻ va togʻoldi hududlarining ekoturizm salohiyati uchta koʻrsatkichlar boʻyicha baholandi. Salohiyatining yuqori va xilma xilligi aniqlandi, ammo bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlarning qoniqarsiz xususiyatlari va atrof-muhit hamda turizm infratuzilmasi rivojlanishining past darajada ekanligini koʻrishimiz mumkin (9-jadval).

Togʻ va togʻoldi hududlarda ekoturizm salohiyatining (THES) integral koʻrsatkichlari quyidagi formula asosida ishlab chiqilgan:

$$THES = \frac{TK(TK1 + TK2 + TK3) + IIK(IIK1 + IIK2 + IIK3) + EIK(EIK1 + EIK2 + EIK3)}{3}$$

THES – tog‘li hududlarning ekoturistik salohiyati;  
 TK – tabiiy ko‘rsatkichlar;  
 IIK – ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar;  
 EIK - ekoturizm infratuzilmasi ko‘rsatkichlari.



**2-rasm. Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlari ekoturistik salohiyati kartasi**

**Surxondaryo viloyati transchegaraviy ekoturistik zonalarida ekoturizmni rivojlantirishni baholashning ball tizimidagi ko'rsatkichlari (Ravshanov Sh.A. 2024)**

№	Tranchegaraviy ekoturistik zonalar (misolida)	Ekoturistik salohiyat ko'rsatkichlari												
		Tabiiy ko'rsatkichlar			Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar			Ekoturistik infratuzilma ko'rsatkichlari			Integral o'rtacha ko'rsatkich			Umumiy ball (THES)
		Tabiiy sharoitning qulayligi	Landshaftlarning ekoturistik jozibadorligi	Ekoturistik resurslar bilan ta'minlanganligi	Mahalliy aholining turizm sohasida bandligi	Hududlarning investitsion ahamiyatga egaligi	Barqaror rivojlanishga ko'maklashishuvi	Mehmonxona va boshqa turistik turar joylar zichligi	Yo'l va aloqa vositalari tuzilmasi	Turistik kadrlar bilan ta'minlanganligi	TK	IIK	EIK	THES
1	Boysun-Hisor	5	5	5	4	4	4	4	4	2	5	4	3.3	<b>4,1</b>
2	Bobotog`	3	3	2	1	2	2	1	2	1	2.6	1,6	1.3	<b>1,8</b>
3	Ko`hitang	3	4	4	2	3	3	2	3	2	3.6	2.6	2,3	<b>2,8</b>

**THES baholash shkalasi**

Ball	Salohiyat
0-1	juda past
1-2	past
2-3	o'rtacha
3-4	yuqori
4-5	juda yuqori

Dissertatsiyaning “**Surxondaryo viloyatini ekoturistik rayonlashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida ekoturistik rayonlashtirishning metod va tamoyillari, Surxondaryo viloyatining transchegaraviy ekoturistik zonalarini aniqlash, viloyatda ekoturistik faoliyatni rivojlantirish istiqbollari va muammolari kabi masalalar o'z yechimini topgan.

Geografik tadqiqotlarda hududlarni kichik bo'laklarga ajratish ma'lum bir taksonomik birliklar asosida amalga oshiriladi. Zero ekoturizm bugungi kunda tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadigan fan sohasi sifatida ko'rib chiqilmoqda. Mamlakatimizning har bir hududi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, bu aloqalarning xususiyatlari va bir-biriga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini belgilovchi tabiiy sharoitlarning xilma-xilligi, iqlim, landshaft-ekologiya, etnografik-demografik omillar hamda ekologik vaziyat kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. So'nggi yillarda inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatning keng quloch yoyib borishi, uning ijobiy va salbiy jihatlarini o'zining miqdoriy va sifatli xususiyatlariga ega.

Turizm va rekreatsiya sohasidagi transc chegaraviy tadqiqotlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Shimoliy Amerikada davlat chegaralarining oshkoraligi oshib borishi bilan amalga oshirilmogda. Bu tadqiqotlar murakkab transc chegaraviy hududlarni shakllantirish jarayonida muhim tarkibiy qismlardan biri sifatida qaraladi. V.Grama (2011), A.Kovach (2011), J.V.Skott, J.Layn (2012), M.Braym (2013) va boshqa tadqiqotchilar Yevrohududlar doirasida transc chegaraviy turizm va rekreatsiyaning institutsionallashuviga katta e'tibor qaratganlar R.Lagievskiy, D.Revelas (2004), K.Vodeb (2010) ning asarlari bevosita turizm va rekreatsiyada transc chegaraviy mintaqalarni shakllanishiga, D.Timoti (1995), X.Vachoviak (2006), E.K.Prokkola (2018), asarlari turizm da transc chegaraviy hamkorlikka, N.Serich (2011) va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari esa transc chegaraviy turistik yo'nalishlarga bag'ishlangan.


Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo'lib, viloyatning qo'shni davlatlar bilan chegaradosh qismlarida o'zbek, tojik, turkman va hatto afg'on xalqlarining milliy an'analari qo'shilib, o'ziga xos etnografik xususiyatlarni shakllantirgan. Xalqlarning milliy an'analari bilan tanishishni kengaytirish va rekreatsiya hamda ekoturizm faoliyatini rivojlantirish maqsadida ushbu hududda transc chegaraviy ekoturistik zonalar ni tashkil etish zarur. Viloyatdagi mavjud ekoturizm hududlaridan tashqari, foydalanilmayotgan obektlarni aniqlash, resurslar va ma'lumotlar bazasini yaratish, shuningdek, ular ni xaritaga tushirish muhim ahamiyatga ega.

Transc chegaraviy hududlar ikki yoki undan ortiq qo'shni davlatlarning chegara hududlarini o'z ichiga oladi va o'ziga xos transc chegaraviy geografik makon ni tashkil etadi. Bunday hududlar bir mamlakatning geografik obyektlari o'zaro aloqada bo'lgan milliy hududlardan farq qiladi, chunki bu yerda turli mamlakatlar obyektlari o'rtasidagi munosabatlar majmui mavjud.

Biz quyida o'z tadqiqot natijalarimizdan kelib chiqqan holda Surxondaryo viloyatida 3 ta yirik Transc chegaraviy ekoturistik zonasini ajratdik (3-rasm).

**Bobotog' transc chegaraviy ekoturistik zonasi.** Surxondaryo viloyatidagi Bobotog' tog' tizmasi O'zbekiston va Tojikiston chegarasida, Surxondaryo hamda Kofirnixon daryolari oralig'ida joylashgan. Uning uzunligi taxminan 125 kilometr, kengligi 30-40 kilometr. Go'zal o'rmonzorlar, ilonlar yashaydigan sirli Govurg'on darasi, Qorayumaloq cho'qqisi, zich archazorlar va etnik turmush tarzini aks ettiruvchi Chagam qishlog'i, tog'lardan oqib kelayotgan Chagamsoy daryosi va go'zal tabiatga xos ko'p yillik pistazorlar bu hududning ajralib turuvchi xususiyatlaridir. Ekoturizm maskanlari sifatida Govurgan - Toshqo'ton massividan foydalanish maqsadida ekoturizm ni rivojlantirish rejalashtirilgan. Bu maqsadda kempinglar, o'tovlar, dam olish joylari va ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish, shuningdek, ekomarshrutlar ishlab chiqish va ular ni ekoturistik maqsadlarda jihozlash, ya'ni to'xtash joylari, anshlaglar, yo'l ko'rsatkichni qurish ishlari amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Bobotog' transc chegaraviy ekoturizm zonasining ekoturistik resurslari aniqlangan, tavsifi keltirilgan va ular gidrologik, geologik, landshaft, alohida muhofaza etiladigan, etoturistik resurslarga ajratilgan.

# SURXONDARYO VILOYATI TRANSCHEGARAVIY EKOTURISTIK ZONALAR KARTASI



3-rasm. Surxondaryo viloyati transchegaraviy ekoturistik zonalari kartasi

**Ko‘hitang transchegaraviy ekoturistik zonasi.** Surxondaryo viloyatidagi Ko‘hitang tog‘lari Pomir-Oloyning janubi-g‘arbiy qismida, O‘zbekiston va Turkmaniston chegarasida joylashgan bo‘lib, noyob tabiat manzaralari va ekoturizm imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Boysuntog‘ tizmasining janubiy davomi hisoblanadi. Tizma Amudaryo vodiysidan Sherobod daryosi darasigacha 100 km ga cho‘zilgan. Eng baland nuqtasi Ayribobo cho‘qqisi 3137,7 m. bo‘lib Ko‘hitang tog‘ tizmasining markaziy qismida joylashgan. Ko‘hitang tog‘ tizmalarida joylashgan ekoturistik salohiyatga ega bo‘lgan Surxon qo‘riqxonasi (bufer) hududida qo‘riqxonaning Qizilolma bo‘limi “Zaravutsoy” hududida 395,6 ga. maydonda ekoturistik maskan tashkil qilingan bo‘lib turizm uchun xizmatlar va obyektlar (kempinglar, o‘tovlar, dam olish, ekomarshrutlar ishlab chiqish va marshrutlarni ekoturistik maqsadlarda jihozlash)ni qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

**Boysun-Hisor transchegaraviy ekoturistik zonasi.** Hisor tog‘lari Tojikistonning Hisor viloyati bo‘ylab sharqdan g‘arbiga 200 kilometr ga cho‘zilgan tog‘ tizmasi bo‘lib, u Pomir-Oloy tizmasining g‘arbiy qismidir. O‘zbekistonning eng baland cho‘qqisi Hazrat Sulton 4643 m O‘zbekiston va Tojikiston chegarasida joylashgan. O‘zbekistonning muhim tabiiy hududlaridan biri bo‘lib, ekoturizm uchun katta salohiyatga ega. Ushbu hududda biologik xilma-xillik, betakror tog‘ landshaftlari va ekologik jihatdan qimmatli tabiiy resurslar mavjud, ular ekoturizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu tog‘ tizmasi atrofidagi hudud qadimdan insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan va ko‘plab madaniy yodgorliklarga boy. Surxondaryo viloyatining tarixi qadimgi sivilizatsiyalar bilan bog‘liqligi tufayli, Hisor tizmasi yaqinida ko‘pgina qadimiy aholi punktlari, arxeologik yodgorliklar va madaniy obidalar joylashgan. Boysuntog‘dan bir nechta muhim sersuv daryo va soylar boshlanadi, jumladan Machaydaryo, Qayroqsoy, Xo‘jaipok, Boysunsoy, Shotutsoy va Palg‘ar kabi suv havzalari mavjud. Ushbu daryo va soylar nafaqat hududning tabiiy suv resurslari hisoblanadi, balki bu yerning ekoturizm salohiyatini oshiruvchi omillardan biri sifatida ham ahamiyatlidir. Shu sababli, bu hududni ekologik barqarorlikni ta‘minlaydigan, yuqori salohiyatga ega ekoturizm markaziga aylantirish mumkin.

## XULOSA

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar qilindi:

1. Dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarining tahlili “ekologik turizm” atamasining ma‘nosini aniqlashtirish imkonini berdi. Ekoturizm - turistlarning ma‘lum bir hududning tabiiy va ekologik muhitiga salbiy ta‘sirini kamaytirish, ekologik vaziyatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashga yordam beradigan tarzda tashkil etilgan sayohatlarning barcha turlaridir. Ekologik turizmning o‘ziga xos xususiyati turizm salohiyatini oshirish, tabiatni muhofaza qilish, barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan, turistlar va mahalliy aholining ekologik madaniy darajasini oshirishga yordam beradigan turizm faoliyatini boshqarish va tashkil etish borasidagi alohida yondashuvdir.

2. Dissertatsiyada ekologik turizm turlarining tasnifi ishlab chiqilgan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati bu jarayonning shakllari va turlarini aniqlashda kompleks yondashuvdan foydalanish hisoblanadi. Taqdim etilgan tasnif ekoturizmni rivojlantirishni samarali rejalashtirish va boshqarish uchun potentsial turistlarning turli toifalarini va tabiiy hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi.

3. Surxondaryoda ekoturistik faoliyatning hozirgi holati tahlili shuni ko'rsatdiki, viloyat ekoturizmni rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlarga ega, ammo ekoturizmni rivojlantirishga bir qator muammolar to'sqinlik qilmoqda, jumladan: ekoturizmning axborot-targ'ibot vositalari bilan ta'minlanmaganligi; ekoturizm infratuzilmasining rivojlanmaganligi; turistlarning ekologik madaniyat darajasining pastligi, turli tabiiy hududlarda ekoturizmni tashkil etish masalasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy tavsiyalarning yo'qligi.

4. Qishloq hududlarining ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish, boshqarishda makro va mezo darajadagi davlat hokimiyati organlarining ishtiroki zarur, degan xulosaga kelish imkonini berdi; turizm dasturlarini yaratish uchun ilmiy kadrlarni tayyorlash; turistik tashriflarning salbiy ta'siriga o'z vaqtida javob berish imkonini beruvchi ekotizimning doimiy monitoringini olib boruvchi maxsus ilmiy bo'limlarni tashkil etish.

5. Tadqiqot davomida Surxondaryo viloyati bo'yicha ekoturizmni rivojlantirishning yagona strategiyasini shakllantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ekoturizmni rivojlantirishning umumiy salohiyatini aniqlash imkonini beruvchi turkum xaritalar tayyorlandi. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar turistik tashkilotlarda ekoturizmni rivojlantirishning mintaqaviy strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

6. Tog' va tog'oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish yuqori salohiyatga ega, ammo uning mamlakatimizda rivojlantirish imkoniyatlari turlicha bo'lib, har bir hudud o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Xususan, Surxondaryo viloyati tog' va tog'oldi hududlarida ham ekoturizmning barcha turlarini (yashil turizm, tog' turizmi, suv turizmi, speleoturizm, ekstremal turizm) rivojlantirish uchun resurslar yetarli.

7. Surxondaryo viloyati tog' va tog'oldi hududlarining qo'shni davlatlar bilan chegaradoshligi, hududlarda yashaydigan aholining etnik xususiyatlari inobatga olinib, mazkur hududlardagi ekoturistik-rekreatsioon resurslardan hamkorlikda foydalanishni tashkil etish, yaqin qo'shnichilik aloqalarini yo'lga qo'yish imkonini beradigan transchegaraviy ekoturistik zonalar ajratilgan.

8. Transchegaraviy ekoturistik zonalarini tashkil etishni o'rganish borasidagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, ichki hududlarga nisbatan chegara hududlari rivojlanishining orqada qolishini bartaraf etishga yordam beradigan muhim ijobiy omil sifatida qaraladi. Dissertatsiya ishida muhokama qilingan ekoturizm sohasidagi transchegaraviy o'zaro aloqalarni rivojlantirish va TChEZ ni maqsadli shakllantirishning tajribalaridan, bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining barcha xorijiy davlatlar bilan chegaradosh hududlarida ham foydalanish mumkin.

9. “Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi hududlari ekoturistik resurslari”, “Transchegaraviy ekoturistik-rekreations zonalar ekoturistik salohiyatini baholash” kartalari viloyatda ekoturizmni to‘g‘ri tashkil etish, resurslarni baholash va ulardan maqsadli foydalanish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ  
ШАРАФА РАШИДОВА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ ШАРАФА РАШИДОВА**

**РАВШАНОВ ШОХРУХ АЛИКУЛ УГЛИ**

**ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР  
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ГОРНЫХ И ПРЕДГОРНЫХ  
ТЕРРИТОРИЙ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**11.00.01 – Физическая география**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2025**

**Тема диссертационного исследования доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована Высшей Аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № B2024.2.PhD/Gr311.**

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и информационно-образовательном портале “ZiyoNet” ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Хурсанов Дунёбек Бахтиёрвич**

доктор философии по географическим наукам (PhD),  
доцент

**Официальные оппоненты:**

**Боймирзаев Каримжон Мирзахмедович**

доктор географических наук (DSc), доцент

**Тураев Кувонч Тагирович**

доктор философии по географическим наукам (PhD),  
доцент

**Ведущая организация:**

**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится 27 февраля 2025 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустансарай, дом 93. Тел.: (+99866) 240-38-47, факс: (+99866) 239-11-40; e-mail: [ik-geografiya2019@mail.ru](mailto:ik-geografiya2019@mail.ru))

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова (зарегистрирован за № \_\_\_\_). Адрес: г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (+99866) 240-38-47.

Автореферат диссертации разослан “15” февраля 2025 года.  
(Реестр протокола рассылки № 1 от “28” января 2025 года)

**С.Б.Аббасов**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.г.н.,  
профессор

**Б.А.Мелиев**

Учёный секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор философии по географическим  
наукам (PhD), доцент

**К.С.Ярашев**

Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.г.н. (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В докладе Всемирной туристской организации (UNWTO) изложены несколько программ устойчивого развития туризма, в которых подчёркивается необходимость уделять особое внимание вопросам “изменения климата, контроля за отходами, устойчивого использования земель, сохранения биоразнообразия и особо охраняемых природных территорий для развития экотуризма”<sup>3</sup>. В связи с этим развитие экотуризма требует научно обоснованной организации сохранения устойчивости геосистем, охраны биоразнообразия и природных памятников, а также разработки стратегий устойчивого развития экотуризма.

В мировой практике в развитии экотуризма проводятся научные исследования в направлениях охраны природных памятников, особо охраняемых территорий и геосистем. В этом отношении приоритетное значение имеют рациональное использование природных ресурсов, продление сезонности экотуризма, совершенствование территориальной структуры и разработка принципов устойчивого развития.

В Узбекистане реализуется ряд мер по развитию различных направлений туризма, включая экотуризм, агротуризм, исторический, религиозный и экстремальный туризм. В рамках Указа Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года была утверждена “Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”<sup>4</sup>, которая определила ряд ключевых задач в сфере туризма и охраны окружающей среды. Стратегия направлена на ускоренное развитие туристической индустрии, повышение её роли в экономике, улучшение качества туристических услуг и расширение туристической инфраструктуры. Все эти усилия преследуют цель обеспечения жизни людей в экологически безопасной среде. Особое значение приобретает изучение экотуристических характеристик горных и предгорных ландшафтов Сурхандарьинской области, отличающихся своим природным разнообразием и уникальными геосистемами.

Указ Президента Республики Узбекистан от 3 февраля 2018 года № УП-5326 “О дополнительных мерах по ускоренному развитию сферы туризма”, постановление Президента от 5 января 2019 года № ПП-5611 “О мерах по совершенствованию системы управления сферой туризма”, указ от 6 ноября 2021 года № УП-6306 “О дальнейшем развитии охраны и использования объектов туризма и культурного наследия”, указ от 30 октября 2019 года № УП-5863 “Об утверждении концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан на период до 2030 года”, постановление от 12 января 2024 года № ПП-21 “О мерах по ускоренному развитию экологического туризма в Республике Узбекистан”, а также постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 октября 2018 года № 841 “О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития

<sup>3</sup> <https://www.e-unwto.org>. UNWTO Annual report. 2017

<sup>4</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года

на период до 2030 года” и от 5 мая 2020 года № 332 “О дополнительных мерах по эффективному использованию и развитию туристического потенциала Сурхандарьинской области”, наряду с другими нормативно-правовыми документами в данной сфере, создают основу для реализации поставленных задач. Настоящая диссертационная работа в определённой степени способствует выполнению указанных задач.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики: V. “Сельское хозяйство, биотехнологии, экология и охрана окружающей среды”, VIII. “Науки о Земле”.

